

## YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBİYALASHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI.

**Temirova Shalola**

Jizzax davlat Pedagogika universitet tadqiqotchisi

**Anotatsiya:** Milliy qadriyatlarni saqlab qolish hamda yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda - milliy an'ana va urf-odatlarni o'zida mujassamlashtirgan ma'naviy munosabatlarni shakllantirish, jamiyatda ma'naviy muloqotni ta'minlash, milliy o'zlikni anglashni yangi bosqichga ko'tarish haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Milliy qadriyat, milliy g'oya, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy innovatsiya, yoshlar, milliy an'ana, urf-odat, tarbiya, oila, mafkura, ma'naviyat.

**Annotation:** preserving national values and educating the young generation in the spirit of respect for national values - forming spiritual relationships that incorporate national traditions and customs, ensuring spiritual communication in society, bringing awareness of national identity to a new level is thought about.

**Key words:** National value, national idea, awareness of national identity, social innovation, youth, national tradition, tradition, education, family, ideology, spirituality.

Milliy qadriyatlarni saqlab qolish hamda yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarni vatanga muxabbat, mehnatsevarlik, mexr-oqibat, sadoqat tuyg'ularini shakllantirish ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlarimizni kelajak avlodga ham etkazish asosiy vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining **70-maqсадida: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.** Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash. haqida aytib o'tilgan.<sup>172</sup>

Tarbiya, xususan milliy tarbiya xaqida so'z borganda, bu tushunchaning mohiyati ustida alohida to'xtab o'tish lozim. Tarbiya so'zi asli arabcha bo'lib, «parvarish qilish, ta'lim berish, o'rgatish» degan ma'noni anglatadi. Dunyoqarashimizga hamoxang tarzda shakllanib borayotgan amaliy hatti harakatlarimizda yangiliklar shu qadar ko'pki, ularni oxirgi paytda ijtimoiy innovatsiyalar tushunchasi orqali izohlamoqdamiz. Ijtimoiy innovatsiyalar - bu inson aqli va kuchi, ma'naviy dunyosini mutanosibli sharoitida, uning mohiyatini saqlash, himoya qilish, takomillashtirish, samaradorligiga erishish yo'llarini ko'rsatuvchi qarashlar majmui bo'lib, u bugungi kunda har birimizning turli tashqi va ichki ma'naviy tazyiqlardan himoyalanihimizning kafolatlarini belgilaydi.<sup>173</sup>

<sup>172</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2021.-280-b.

<sup>173</sup> Jaksimov I. Milliy-ma'naviy yuksalish jarayonining ijtimoiy-tarixiy masalalari va uni yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni. <https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-ma-naviy-yuksalish-jarayonining-ijtimoiy-tarixiy-masalalari-va-uni-yosh-avlod-tarbiyasida-tutgan-o-rni>

Yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, milliy an'ana va urf-odatlarini o'zida mujassamlashtirgan ma'naviy munosabatlarni shakllantirish tamoyillarining vujudga kelish ilk makoni – bu, shubhasiz, oiladir. Oila-jamiyatning tayanchi. Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Yosh avlodning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak.

Chunki yoshlar tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmagan holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi. Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama etuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada yoshlarga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi.

Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab etishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rin berilgan.<sup>174</sup>

Bugungi kunda farzand tarbiyasida ijtimoiy muammolardan; uyali telefonlardagi tajovuzliklar hamda ijtimoiy tarmoqlar to'ri tabora avj olmoqda. Ushbu zamonaviy kommunikatsiya vositalari muhim aloqa vositalari bo'lishi bilan birga ba'zi ma'naviyati to'liq shakllanmagan sust yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoq ta'siriga tushib qolgan yoshlarga ota-onalar, o'quv muassasalari bilan birgalikda yondoshib aloqa vositalarining asl mohiyatini tushuntirib berishlari lozim.

Tarbiyadan tashqaridan bo'ladigan salbiy ta'sir bu, eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo'l qo'yilmagach, u o'z qiziqish va rag'batlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan izlay boshlaydi. Demak, ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta e'tibor qaratishi talab etiladi. Ya'ni, ular farzandi o'qishdan keyin qayerga borishi, nima bilan shug'ullanishini nazorat qilish lozim. Millatlarning hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar ularning nafaqat hozirgi va kelajakdagi, balki o'tmishdagi ma'naviyatlarining ham qanday bo'lganligi to'g'risida o'ylashga majbur qiladi.

Xususan ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan pand nasixatlarida ham hozirgi kundagi eng dolzarb muomalar haqida mulohazalarini bildirganlar.

**Farobiyning** “Ta'lim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi, uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog'i lozim, aks holda

---

<sup>174</sup> “Yoshlar tarbiyasida oilaning o'rni“. copyright c 2020 aii rights reserved i developed by futuresoft

kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola etuk bo‘lib etishmaydi”.<sup>175</sup>

**Mirzo Ulug‘bekning** Oila muhiti sog‘lom avlodni etishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, “Bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqish, xavasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa o‘qimishli ota – onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e‘tibor berishlari lozim”.

Mohlar oyim **Nodiraning** inson va tabiatiga nisbatan qarashlariga faqat shaxsiy tuyg‘u emas, balki yoshlar tarbiyasida milliy an‘analarning roli haqidagi fikrlari ham namoyondir. Nodiraning tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g‘oyalari-adolat, insof, xalq manfaati muxim o‘rinni egallaydi deb ta’kidlaganlar.

XXI asr yoshlari turli-tuman mafkuralar tajovuzi kuchayib borayotgan sharoitda yashamoqdalar. Bunday vaziyatda ijtimoiy gumanitar fanlar yoshlarimizda har qanday yod mafkuraviy ta’sirga qarshi muayyan munosabatni hamma joyda har doim namoyon bo‘lishini ta’minlashga qodir bo‘lmog‘i kerak. Ushbu o‘ta muhim ijtimoiy-pedagogik muammo echilmas ekan, kelajakda yoshlarimizning yod mafkuralar ta’siriga qarshi javob qaytara olmasliklari tabiiydir. Bunga esa yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Asrlar davomida yaratilgan qadriyatlardan oqilona foydalanish, uni asrab-avaylash hamda yoshlar ongiga singdirish orqali kelajak avlodga etkazib berishda o‘z ifodasini topadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma’naviy immunitetli, o‘zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o‘zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e’tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yod va begona ta’sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga hissa qo‘shadi.

### Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2021.-280-b.

2. Jaksimov I. Milliy-ma’naviy yuksalish jarayonining ijtimoiytarixiy masalalari va uni yosh avlod tarbiyasida tutgan o‘rni. <https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-ma-naviy-yuksalish-jarayonining-ijtimoiy-tarixiy-masalalari-va-uni-yosh-avlod-tarbiyasida-tutgan-o-rni><sup>176</sup>

3. “Yoshlar tarbiyasida oilaning o‘rni“. copyright c 2020 aii rights reserved i developed by futuresoft

4. “Sharq mutafakkirlarining farzand tarbiyasi haqidagi fikrlari”. [ertaklar.uz/uz/sharq-mutafakkirlarining-farzand-tarbiyasi-haqidagi-fikrlari/](http://ertaklar.uz/uz/sharq-mutafakkirlarining-farzand-tarbiyasi-haqidagi-fikrlari/)

<sup>175</sup> “Sharq mutafakkirlarining farzand tarbiyasi haqidagi fikrlari”. [ertaklar.uz/uz/sharq-mutafakkirlarining-farzand-tarbiyasi-haqidagi-fikrlari/](http://ertaklar.uz/uz/sharq-mutafakkirlarining-farzand-tarbiyasi-haqidagi-fikrlari/)

<sup>176</sup> Абдухолик Ғиждувоний. Васоиё.-В.18 а.